# 12.01.2025 Hakimov_Akbar qayta tahrirladi

1.Tatqiqotchilar Nukus shahri infratuilmasini, shahar aholi joylashuvi va sanoat karxonalari joylashuvini o'rganishdi. Bu soha vakillari kimlar edi.

A.Landishaftshunos B) Geourbanist
C) Geomorfolog D) Gliatsiolog

***2.Topografik xaritada katak tomonlari 5 sm ge teng bo'lsa bu topografik xarita mashtabini toping?***

*A) 1:50000 B) 1:100000*
***C) 1:20000*** *D) 1:250000*

3.Iqlim hosil qiluvchi eng muhim omilni aniqlang

A) okean oqimlari b) yer yuzi holati
C) havo massalari D) relyeft

4. Yer osti suvlari 150 metr balandlikdan otilib chiqmoqda. Tarkibida magniy, kalsiy, natriy tuzlar mavjud.

Bu suv yer osti suvlarining qaysi turiga mansub

A) Sizot suvlar B) Artezian suvlar
C) gurunt suvlar D) Mineral suvlar

5.LA-MANSH bo'g'ozi qaysi hududlarni ajratib turadi.

A) Skandinaviya va Islandiya oroli

B) Yevropa va Britaniya oroli

C) Appenini yarimoroli va Sitsiliya

D) Afrika va Yevropa

6.Aydarko'lning shimolidan janubiga kesib o'tdi.Ular qaysi okrug hududidan kesib o'tishdi.

A) O'rta Zarafshon B) Mirzacho'l

C) Qashqadaryo D) Surxandaryo

7.Matnni o'qing.
O'rtacha yillik yog'in miqdori 80— 100 mm. Bunga asosiy sabab, eng keng tarqalgan tuproq — o'tloq-voha tuprog'idir. Bu tuproq alluvial yotqiziqlar ustida vujudga kelgan bo'lib, chirindi miqdori 2 foiz atrofida. ta'rifr qaysi okrug uchun xos ekanligini aniqlang.
A)Qizilqum B) Quyi Zarafshon
C) Quyi Amudaryo D) Orol

8. CHIRCHIQ-OHNAGRAON tabiiy geografik okrugiga oid
ma'lumotlarni aniqlang.
A)*Paleogen davrida dengiz suvining chekinishi tufayli quruqlikka aylangan, so'ngra daryo o'zanini yuvib, chuqurlashtirib, qator qayirlar hosil qilgan.*
B)*Okrugning vodiy qismi sharqdan g'arb tomonga pasayib boradi. Vodiysining o'ziga xos xususiyati shundaki, u goh kengayadi, goh torayadi.*
C) Okrug yer yuzasining tarkib topishi paleozoy erasidan boshlangan. Tog'lari dastlab kaledon, keyin gersin burmala- nishida ko'tarilgan, so'ngra tashqi kuchlar ta'sirida yemirilgan.
D)*Tog'li qismi kaynozoy erasida burmalangan bo'lib, kristalli slanes, ohaktosh, marmar, granit kabi jinslardan tarkib topgan. Tog'larida karst jarayoni rivojlangan.*

9.Kaynazoy erasi Paleogen davrida sodir bo'lgan voqeani aniqlang.
A) dengiz chekina boshlanib, quruqliklar maydoni kengaygan
B) tog'lar yemirilib pasayib qolgan.
C) iqlim nam va issiq bo'lgan
D) dengiz ostida bo'lgan va cho'kindi jinslar to'plangan.

10.Tyanshan tog'i yana qaytadan ko'tarilib, yoshargan davrni aniqlang.
A) Mezazoy
B) Kaynazoy
C) Paleazoy erasi birinchi yarmida
D) Paleazoy erasining ikkinchi davrida

11.Geoekologiyaga oid ma'lumot tog'ri berilgan variantni aniqang?
A) Agroiqlimiy resurslar tiklanmaydigan resurslar
B) Daraxtning kesilishi, yer osti suvlari pasaytiradi
C) Sanoat chiqindilari suvlar ifloslanishida muhim ro'l o'ynaydi
D) Chorva mollarini tartibsiz boqilishi cho'llashishga sabab bo'ladi

12 O'rtacha yillik havo harorati qishda —25 —30 °C ni, yozda +22 °C ni tashkil etadi. shimolida *tundra-gleyli, podzol* va *botqoq tuproqlar,* janubiy qismida esa *unumdor qora tuproqlar* tarqalgan. Bu qaysi o'lka ekanligini aniqlang
A) Sharqiy Yevropa B) Sharqiy Sibir
C) G'arbiy Sibir D) O'rta Yevropa

Hakimov Akbar

13.Pokiston tabiiy sharoitiga oid ma’lumotni toping.
A) qo‘shni Hindistondan boshlanadigan va Arabiston dengiziga quyiladigan Hind daryosining vo- diysi egallaydi
B) asosiy hududida nam tropik iqlim hukmronlik qiladi
C) shimoli va sharqida baland tog’lar va tog’ oraliq botiqlari bor
D) Yoqilgi resrurslariga boy

14. Surxandaryo viloyatiga oidma’lumotlar berilgan javobni toping.
A)Viloyatda da yirik IES, neftni qayta ishlash korxonasi, rangli metallurgiya va mshinasozlik korxonalari faoliyat yritmoqda. Qurilish materiallaridan sement, kimyo mahsulotlaridan mineral o‘g‘itlar va sintetik tola ishlab chiqarilmoqda. Respublika ahamiyatiga ega kon-metallurgiya kombinati bor.
B) Viloyatda ikkita neftni qayta ishlash korxonasi bor, kimyo korxonalarida ikki xil mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarilmoqda. Qurilish materiallari, shoyi, kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish markazlari shakllangan. Qishloq xo‘jaligi yuksak intensivligi bilan ajralib turadi.
C) Viloyat sanoati, asosan, qazib oluvchi sanoat hisobiga yuksak rivojlangan. Strategik ahamiyatga molik gaz-kimyo majmuasi faoliyat ko‘rsatmoqda. Tuproq va iqlim sharoiti ingichka tolali paxta, sabzavot, kartoshka va mevalar yetishtirishga qulay.
D) Viloyat iqtisodiyotining rivojlanishida hududning qulay iqtisodiy geografik o‘rni, tabiiy resurslar bilan yaxshi ta’minlanganligi muhim rol o‘ynagan. Elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, mashinasozlik korxonalari ichki va tashqi bozor uchun mahsulot yetkazib bermoqda. Hududida uchta sanoat rayonlari vujudga kelgan.

15. Qishloq xo’jaligida oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini o‘z kuchi hisobiga qondiradi. ekin maydonlarining asosiy qismi donli ekinlar, jahon mamlakatlari orasida bug‘doy, sholi, kartoshka, sabzavot, meva, poliz mahsulotlari, uzum, choy, tamakining yalpi hosili yetakchilik qiladi Bu ta’rif qaysi davlat uchun xos.
A)Hindiston B) AQSH
C) Xitoy D) Braziliya

16.Ko’p qo’l mehnati talab etadigan qishloq xo’jalik mahsulotini toping.
A)bug’doy B) sholi
C) makkajo’xori D) arpa

17.Bir xil mahsulot ishlab chiqarish va bir xil xil xizmat ko;rsatish tarmog’I qanday ataladi.
A)koperativlashuv B) ixtisoslashuv
C) kombinatlashuv D) markazlashuv

18.Yirik shaharlar atrofiga qishloqdan ko’chib kelib, tartibsiz uy joy quradi. Bu holat shahar infratuzilmalariga ta’sir etadi. Bu jarayon qanday ataladi.
A) Soxta urbanizatsiya
B) Demografik siyosat
C) Aholini takror barpo etish
D) Migratsiya

19. *Suv sathining ko’tarilishi natijasida Tuvalu aholisining 5000 kishisi Yangi Zellandiyaga ko’chirildi*
*bu qanday jarayon hisoblanadi*
*A) urbanizatsiya B) migratsiya*
*C) demografik siyosat D) aholoni takror barpo etish*

20.Markaziy osiyoda tabiiy o’sish jarayoni eng past bo’lgan mamlakatni aniqlang
A) Qirg’iston B) Turkmaniston
C) O’zbekiston D) Tojikiiston

21.Seysmik jihatdan faol, zilzila va vuqlon otilib turadigan mintaqa, suv taqchilligi kuzatiladi.
A) Janubiy Yevropa B) Janubiy Osiyo
C) Sharqiy Yevropa D) ‘arbiy Yevropa

22.Sug’oriladigan yerlarning ¾ qismi qaysi qitaga tog’ri keladi.
A) Yevropa B) Afrika
C) Amerika D) Osiyo

Hakimov Akbar

23. Sanoatining yetakchi tarmog‘i mashinasozlik hisoblanadi. mashinasozlikdan keyingi ikkinchi o‘rinda kimyo va neft-kimyo sanoati turadi. Ikkinchi jahon urushiga qadar kimyo sanoati, asosan, kon-kimyo xomashyosiga asoslangan holda rivojlangan edi, Bu qaysi qita edi.
A)Osiyo B) Yevropa C)Afrika D) Amerika

24.Yevropa g’arbida harakatlanadigan, Buyuk Britaniya iqlimida tumanli kunlar ko’p bo’lishga ta’sir etuvchi oqimni aniqlang.
A) Kurosiyo B) Golfstrim
C) Passat D) Musson

25.Nigeriya iqtisodiyotiga oid ma’lumotni aniqlang
A) iqtisodiyotining asosi va davlat byudjeti daromadining bosh manbayi - gaz eksporti
B) YIMning umumiy hajmi bo‘yicha Afrikada JARdan keyin 2-o‘rinda turadi, YIMning aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan miqdori eng past - 3000 AQSH dollari atrofida
C) aholi bandligining asosiy sohasi. Qishloq xo’jaligida yeryong‘oq, makkajo‘xori, sholi, sorgo, tabiiy kauchuk, paxta, sholi, turli sabzavot va meva ekinlari yetishtiriladi
D) Qoramolchilik, yilqichilik, echkichilik, cho‘chqachilik chorvachiligining asosiy tarmoqlari hisoblanadi

26.Tadiqiqchilar Sahroi Kabirga borishdi. Ular qaysi jarayonni aniqlashdi.
A) Kunduzi- hamsim, Kechasi –samum shamoli esadi
B) Kunduzi quruq va kechasi nam bo’ladi
C) Kunduzi issiq, kechasi haddan tasshqari sovuq
D) Kunduzi suvuq, kechasi issiq

27.Materik pastekkislik va yassitog’likdan iborat sharqiy qismi geosinekal jihatdan faol hisoblanadi.
A) Afrika B) Avstraliya
C) Antarktida D) Yevropa

28. *Quyidagi xaritada Qizilqum hududi qaysi raqam bilan ifodalangan.*




*A)5 B) 2 C) 3 D) 9*

*29.* Siyrak o‘rmonlarda (evkalipt, akatsiya, kazuara, butilkasimon daraxtlar), o‘t hamda buta o‘simliklar o’sadi, hayvonlardan *xaltali chumoli-xo‘r,* suv havzalarida qushlar ko‘p uchraydi. Bu ta’rifga mos keladigan tabiat zoansi qaysi raqamda qayt etilgan




*A)5 B) 6 C) 7 D) 9*

Hakimov_Akbar

## 12.01.2025 Hakimov_Akbar qayta tahrirladi

*30.Qashqadaryo xaritasida I raqami bilan qaysi tog' tizmasi berilgan.*




*A)Hisor B) Chaqchar*
*C) Zarafshon D) Ziyoviddin*

*31.Yulduzcha bilan ko'rsatilgan bog'oz kimni nomiga qo'yilgan.*




*A) Chirikov B) Bering C) Shelixov D) Makarov*

*32.Janubiy Amerikaning $30^0$ janubiy kenglik kesib o'tmagan hududni aniqlang*




*A)And tog'i B)Parana daryosi*
*C) La-Plata tekisligi D) Patagoniya*

*33-35-test topshiriqlariga mos keluvchi javoblarni (A-F) javob variantlaridan tanlang.*

| | |
|---|---|
| *33. Hindiston iqlimini aniqlang*<br>*34.Fransiyaning shimoliy-g'arbiy va g'arbiy qismining iqlimini aniqlang*<br>*35.Qozoqiston iqlimi aniqlang* | *A) subtropik kontinental*<br>*B) musson*<br>*C) ekvatorial*<br>*D) mo'tadil kontinental*<br>*E) mo'tadil musson*<br>*F) mo'tadil dengiz* |

**12.01.2025 Hakimov_Akbar qayta tahrirladi**

36.Azimutni aniqlang




**a) A-C ufqning qaysi tomonini ko'rsatmoqda**

**b) A-C dan janubga burilish uchun necha gradus burilish kerak**

**37.**Tojikiston , hududida uran, oltin, kumush, polimetall rudalarining yirik konlari bor.Bu davlatda gidroelektrostasniya mavjud.

a) Bu davlatdagi gidroelektrostansiya qaysi qaysi foydali qazilmalar bilan hududiy birikma bo'la oladi.

b) hududiy birikma natijasida qaysi sanoat tarmog'i rivojlangan.

38. Janubiy iqtisodiy rayon, asosan, qazib oluvchi sanoat hisobiga yuksak rivojlangan. Strategik ahamiyatga molik gaz-kimyo majmuasi faoliyat ko'rsatmoqda. Tuproq va iqlim sharoiti ingichka tolali paxta, sabzavot, kartoshka va mevalar yetishtirishga qulay.

a)Dehqonoboda qurilgan sanoat karxonasi qaysi sanoat tarmog'iga tegishli.

b)Iqtisodiy rayondagi turkiyaliklar bilan hamkorlikda qurilgan sanoat karxonasini aniqlang

39.Jadvaldan foydalanib topshiriqni bajaring




a) soat 07:00 da havoning nisbiy namligi qanchaga teng

b) soat 01:00 da havoning namga to'yinishi uchun qancha suv bug'I kerak

40.Tog'ning mutloq balandligi 3950 metr. Tog' etagidagi havo bosimi 695 mm tashkil etgan vaqtda. Tog' etagi va alpinist orasidagi harorat farqi 10.2$^0$C tashkil etadi.

a)tog' cho'qqisi va tog' etagi orasidagi nisbiy balandlikni aniqlang.

b)Alpinist bilan cho'qqi orasidagi harorat farqini toping

ov Akbar

41

| Mamlakatda doimiy yashovchi aholining demografik ko'rsatkichlari (2022-y) | | |
|---|---|---|
| Mamlakat aholisi (mln kishi) | 56.7 | Yil boshida |
| Qishloq ulishi % | 42 | |
| Tug'ilish | 17 | Yil davomida har 1000 kishiga nisbatan |
| O'lim | 6 | |
| Immigratsiya | 3 | |
| Emmigratsiya | 5 | |

a) Mamlakatda shahar aholisi qancha ekanligini toping

b) Mamlakat aholisi bir yilda qancha kishi ko'paygan

42.Jadval ma'lumotlaridan foydalanib topshiriqlarni bajaring

| Punkt | Samolyot uchish vaqti | Samolyot qo'nish vaqti Toshkent (V) | Soat mintaqasi |
|---|---|---|---|
| A | 23:45 | 01:05 | II |
| B | 22:25 | 04:10 | VII |
| C | 22:10 | 01:10 | IV |

a) B punktda samolyot qo'ngan vaqtda Toshkentda soat necha edi.

b) Qaysi punktda uchish vaqtiga eng ko'p vaqt sarflangan (00:00) ko'rinishida yozilgan

43.Shahar aholisi 1 455 000 kishini tashkil etadi. 2000 yilga nisbatan olish kerak




Chizma asliga mos emas. tug'ilish 11 o'lim 8 immigratsiya 2 emmigratsiya 2

a) Shahar aholisi tabiiy o'sish hisobiga qancha kishiga ko'payganligini aniqlang

b) Shaharning yapli ko'payishi qancha kishi bo'lganligini aniqlang

mov Akbar

**12.01.2025  Hakimov_Akbar qayta tahrirladi**

44. Yozda tropik havo, qishda esa mo‘tadil havo massalari hukmronlik qiladi.Suptropikni O’rtadengiz subtropik, subtropik continental,nam subtropik, musson kabi iqlim tiplari mavjud.

a) havoning o‘rtacha harorati hamma joy da 0 °C dan yuqori. Qishda tez-tez yomg’ir yog’ib turadi.Yoz issiq av biroz quruq bo’lgan iqlim tipini toping.

b) Ozarbajyonning Kaspiybo’yi hududlari qaysi iqlim tipiga kiradi.

45.Xaritadan aniqlang.




a) Tinch okeani, Atlantika okeani va Karib havzasi hududiga bevosita chiqa oladigan mamlakat nomini yozing

b) 2 raqami bilan ko’rsatilgan davlatni tuzilish shaklini aniqlang

Hakimov Akbar